

**“TASDIQLAYMAN”  
Jamoatchilik kengashi raisi**



**\_A. Ishanxodjeyev**

2026-yil 6-fevral

**Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi  
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi  
BAYONI**

2026-yil 5-fevral

5-son

Toshkent shahri

**Raislik qiluvchi:** A. Ishanxodjeyev, Kengash raisi, O‘zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi

**Ishtirok**

**etganlar:**

Jamoatchilik kengashi a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

**Taklif**

**etilganlar:**

Raqamli texnologiyalar vazirligimarkaziy apparati departament, boshqarma va bo‘limlari vakillari.

Kengash raisi yig‘ilish kun tartibini muhokamaga qo‘ydi va Kengash a‘zolari tomonidan kun tartibi bir ovozdan qabul qilindi.

Kengashning 24 nafar a‘zosidan 17 nafari (kvorum) ishtirok etayotganligini inobatga olib, mazkur yig‘ilish vakolatli ega deb hisoblanadi.

**KUN TARTIBI:**

**I. Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining  
2026-yil uchun rejasi to‘g‘risida**

**II. “Elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy  
himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish va raqamli  
hukumat tizimlariga foydalanuvchilar sodiqligini oshirish bo‘yicha tadqiqot  
olib borish” ijtimoiy ahamiyatga molik loyihasi doirasida 2025-yilda amalga  
oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

(A. Ishanxodjeyev, R.Asqarov, K.Irisbekova, A.Fayzullayev, H.Ermatov, S.Murodov,  
R. Mamatqulov, N.Barnayev... A. Ishanxodjeyev)

**I. Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining  
2026-yil uchun rejasi to‘g‘risida**

Mazkur masala yuzasidan Jamoatchilik kengashi raisi A.Ishanxodjeyev so‘zga chiqib, quyidagilarni ma‘lum qildi:

2025-yil davomida Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining uch marta yig'ilishi o'tkazilgani, kengash tarkibini belgilangan tartibda shakllantirish bo'yicha "Yuksalish" harakati bilan hamkorlikda ishlar olib borilgani va bunga erishilgani, kengash a'zolari tomonidan Vazirlik faoliyatiga bir qator masalalarda takliflar berilgani, Vazirlik tomonidan bitta ijtimoiy loyihaga mablag' ajratilgani to'g'risida ma'lumot berdi.

Olib borilgan ishlar natijasida 2025-yilning 1-dekabr kuni mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari sohasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish, muammolarni o'rganish, ularga yechimlar topish va sohani yanada rivojlanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida o'tkazilgan Fuqarolik jamiyati haftaligi doirasidagi Jamoatchilik kengashlari forumida Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati samarali tashkil qilinganligi va yil davomidagi faolligi uchun "Eng faol jamoatchilik kengashi"dan biri sifatida e'tirof etildi.

Masala yuzasidan "Yuksalish" umummilliy harakati raisining Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi U.Rajabov so'zga chiqib, Jamoatchilik kengashi faoliyatini ish reja asosida yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqligini, bunday rejalarning bo'lishi kengash a'zolariga o'z vaqtlari va ishlarini rejalashtirish imkonini berishini ta'kidlab, bundan tashqari, Harakatning 2026-yil 21-yanvardagi tegishli xati bilan vazirlik va idoralardan o'z kengashlari ish rejalarini taqdim qilishlari so'ralganligini ma'lum qildi.

Kengash kotibi N.Abdullayev ish reja ishlab chiqilganligini, kengash a'zolari ko'rib chiqib, ma'qullasa, ana shu reja asosida 2026-yildagi faoliyat tashkil qilinishini hamda "Yuksalish" umummilliy harakatiga yuborilishini aytib o'tdi.

Kengash a'zolari ish rejani ko'rib chiqib, o'z fikrlarini berdi va tuzatishlar kiritildi hamda ma'qullandi.

## **II. "Elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish va raqamli hukumat tizimlariga foydalanuvchilar sodiqligini oshirish bo'yicha tadqiqot olib borish" ijtimoiy ahamiyatga molik loyihasi doirasida 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida**

Ushbu masala yuzasidan "O'zbekiston axborot texnologiyalari korxonolari va tashkilotlari assotsiatsiyasi" NNT direktori Ye.Moxova hamda "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DUK direktori A.Mansurov chiqish qilib, quyidagilarni ma'lum qilishdi:

"Elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish va raqamli hukumat tizimlariga foydalanuvchilar sodiqligini oshirish bo'yicha tadqiqot olib borish" ijtimoiy ahamiyatga molik loyihasini (keyingi o'rinlarda – loyiha) amalga oshirish bo'yicha "O'zbekiston axborot texnologiyalari korxonolari va tashkilotlari assotsiatsiyasi" NNT (keyingi o'rinlarda – ijrochi) va "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DUK (keyingi o'rinlarda – buyurtmachi) o'rtasida umumiy qiymati 1 721 664 400,0 (bir milliard yetti yuz yigirma bir million olti yuz

oltmish to‘rt ming to‘rt yuz) so‘mni tashkil etgan 2025-yil 2-iyundagi 2025/RS-sonli shartnoma rasmiylashtirildi.

Shartnomaga muvofiq ijrochi tomondan quyidagilar amalga oshirildi:

Fuqarolarning, shu jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining elektron ishtiroki bo‘yicha O‘zbekistonda mavjud platformalar faoliyati o‘rganildi.

Xususan, bugungi kunda O‘zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan raqamli hukumat platformalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining Murojaatlar bilan ishlashning yagona onlayn platformasi murojaat.gov.uz, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali, “Mening fikrim” Jamoaviy murojaatlar portali hamda “Open budget” O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq Byudjet” portali Jamoatchilik fikri asosida shakllangan budjet platformalari holati tahlil qilindi.

Tahlillar davomida portallarning maqsadi, foydalanish shakli, portalning ishlab turishiga mas‘ul tashkilot va ularni takomillashtirish masalalari tahlil qilindi.

Elektron fuqarolik ishtiroki bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba va ulardan kelib chiqib, elektron fuqarolik ishtirok portallarining qulayliklarini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari yuzasidan takliflar tayyorlandi. Jumladan, Estoniya, Daniya, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur, Avstraliya, Kanada va Niderlandiya singari rivojlangan davlatlarning raqamli hukumat portallari, ularning maqsad va vazifalari, portallarni tartibga soluvchi huquqiy asoslar va ularning samaradorligi tahlil qilindi.

Ilg‘or xorijiy tajribadan kelib chiqib, elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, shu jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar shakllantirilib, texnik hujjatlar ishlab chiqildi.

Xususan, Aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan davlat organlari va tashkilotlarining o‘zaro ochiq muloqotini ta‘minlovchi “e-muloqot” (muloqot.gov.uz) onlayn platformasini yaratish bo‘yicha pasport, konsepsiya va texnik topshiriq ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun raqamli xizmatlarning inklyuzivligini va qulayligini ta‘minlaydigan huquqiy va institutsional mexanizmlarni aniqlash, shuningdek, xalqaro tajribani tahlil qilish orqali eng yaxshi amaliyotlarni o‘zlashtirish, xatarlarni kamaytirish hamda raqamli hukumat tizimlariga ishonch va foydalanuvchi sodiqligini oshirish bo‘yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida xorijiy mamlakatlarning ochiq muloqot portallari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganildi.

Xususan, Estoniyaning “Elektron operatsiyalarni amalga oshirish uchun elektron identifikatsiya va ishonch xizmatlari to‘g‘risida”, “Ochiq axborot to‘g‘risida”, “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunlari, Koreya Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida” va “Ochiq hukumat ma‘lumotlari to‘g‘risida”gi qonunlari, Singapur davlatining “Elektron tranzaksiyalar to‘g‘risida”gi qonuni, “Elektron rasmiy bayonotlar, qasamyodlar, tasdiqlar va notarial tasdiqlashni osonlashtirishga tuzatishlar kiritish to‘g‘risida”gi normativ-huquqiy hujjati, Daniyaning “Raqamli pochta to‘g‘risida”gi hamda “Davlat

boshqaruvi hujjatlaridan foydalanish to'g'risida"gi qonunlari, Avstraliyaning "Raqamli identifikatsiya to'g'risida", "Elektron operatsiyalar to'g'risida" hamda "Axborot erkinligi to'g'risida"gi qonunlari, Kanadaning Xizmatlar va raqamli siyosat, Xizmat va raqamlashtirish bo'yicha yo'riqnoma va Xizmatlar va raqamlashtirish bo'yicha qo'llanmalari, Niderlandiyaning "Raqamli hukumat to'g'risida"gi, "Ochiq hukumat to'g'risida"gi hamda "Davlat sektori ma'lumotlaridan qayta foydalanish to'g'risida"gi qonunlari, Rossiya Federatsiyasining "Davlat va munitsipal xizmatlarni ko'rsatishni tashkil yetish to'g'risida"gi Federal qonuni normalarining samaradorligi tahlil qilindi va O'zbekiston uchun mos normalar kelgusi qonun ijodkorligi faoliyatida qo'llanilishi uchun shakllantirildi.

Xalqaro tajriba va amaldagi holat tahlili asosida O'zbekiston Respublikasining "Raqamli hukumat to'g'risidagi" qonuni (yangi tahrir) Vazirlar Mahkamasining "Aholining elektron ishtiroki darajasini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlari to'g'risida" qarori loyihalari ishlab chiqildi.

2025-yilning 22-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasida ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokama qilindi.

"Raqamli hukumat" terminining OAVlarda iqtibos qilinishi indeksii monitoring qilish maqsadida ro'yxatdan o'tgan elektron OAVda YAIDXP to'g'risida e'lon qilingan maqolalar o'rganib chiqilib, tahlil qilindi va tahliliy ma'lumot shakllantirildi.

2025-yil 22-avgust kuni Samarqand shahrida "Elektron ishtirok raqamli davlat xizmatlari barcha uchun" mavzusida seminar tashkil qilindi. Seminarda xalq vakillari, vazirlik va idoralar xodimlari va Assotsiatsiya vakillari raqamli davlat xizmatlarining huquqiy kafolatlari, inklyuziv raqamli xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba hamda O'zbekistonda mavjud davlat elektron platformalari, amaldagi holat va kelgusi rejalar muhokama qilindi.

2025-yil 11-noyabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) talabalari uchun my.gov.uz portali orqali elektron davlat xizmatlaridan foydalanish mavzusida seminar-trening tashkil qilindi.

2025-yil 20-21 va 27-28-noyabr kunlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Qonunchilik palatasi Devonining Axborot xizmati xodimlari uchun "Fuqarolarning inklyuziv elektron ishtiroki: raqamli axborot muhitida ishonch va ochiqlikni mustahkamlash va OAV bilan hamkorlikni rivojlantirish" hamda "Fuqarolarning inklyuziv elektron ishtiroki: raqamli axborot muhitida ishonch va ochiqlikni mustahkamlashda axborot xizmatining o'rni" mavzularida seminarlar tashkil qilindi.

2025-yilning 28-noyabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari uchun "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarni ta'minlashda davlat tomonidan raqamli xizmatlar sifatini oshirishning ahamiyati va amalga oshirilgan ishlar to'g'risida seminar tashkil qilindi.

Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan taqdimot materiallari, broshyura va videorolik (<https://youtu.be/Qp2gmhgBXUg>) tayyorlandi.

Yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan Kengash a'zolari Senator, "Ishonch" va "Ishonch-Doverie" gazetalari bosh muharriri H.Ermatov, "Yuksalish" umummilliy harakati raisining Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi U.Rajabov, Xalqaro press klub raisi J.Usmanov va boshqalar o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Bildirilgan fikr-mulohazalar hamda takliflar asosida **Kengash qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

Jamoatchilik kengashi raisi A.Ishanxodjayevning Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2025-yildagi faoliyati yuzasidan bergan axboroti;

"O'zbekiston axborot texnologiyalari korxonalari va tashkilotlari assotsiatsiyasi" NNT direktori Ye.Moxova hamda "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DUK direktori A.Mansurovning "Elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish va raqamli hukumat tizimlariga foydalanuvchilar sodiqligini oshirish bo'yicha tadqiqot olib borish" ijtimoiy ahamiyatga molik loyihasi doirasida 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2026-yilga mo'ljallangan ish rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Raqamli texnologiyalar vazirligiga Vazirlik tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, ayniqsa, sun'iy intellekt yo'nalishiga oid ma'lumotlarni keng targ'ib qilish, bu borada aholining bilimi va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish tavsiya etilsin.

4. Kengash ishchi organi (N.Abdullayev):

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2026-yilga mo'ljallangan ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosi ta'minlanishini tashkil qilsin;

Vazirlik axborot xizmati (Sh.Axmatov) bilan birgalikda Jamoatchilik kengashi yig'ilishi o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotni Vazirlikning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini tashkil qilish;

mazkur bayonni Jamoatchilik kengashi a'zolariga yetkazish choralarini ko'rsin.

**Kengash kotibi**



**N. Abdullayev**

GBD2576